



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-yil 2-son

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.



Crossref
Content
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

“Jurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro‘yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko‘paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo‘yicha mas’ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Tasdiqнома

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 28.04.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog‘i: 15,8
Adadi: 100. Buyurtma: № 84.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig‘i, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

MAS’UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSh)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

X. Xayitov – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

I. To‘raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

S. Xolboyev – O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

J. Ne‘matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O‘zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – «Yurisprudensiya» – «Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:

О. Чориев

Редакторы:

Э. Шарипов, Е. Ярмолик, Э. Мустафаев,
К. Абдувалиева, Й. Махмудов,
М. Шарифова, Ш. Бекназарова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1387

Свидетельство

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
28.04.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 15,8. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 84.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Высшем судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и.о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

E. Sharipov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abduvalieva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

Certificate

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 28.04.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 15,8.

Units: 100. Order: № 84.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimkhonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Akhmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Kh. Khayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

S. Kholboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Rakhmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 8 **ALIYEV ILHOMJON MUROD O'G'LI**
Sun'iy intellekt texnologiyalarini O'zbekiston Respublikasi adliya organlari faoliyatiga tatbiq etish

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAXRAROVICH**
Zamonaviy kiberkorupsiya: tushunchasi, muammolari va Markaziy Osiyo hududida unga qarshi kurashish choralar
- 30 **JUMAG'ULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: yangi huquqiy institutga tarixiy nazar
- 38 **INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O'G'LI**
Sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari: raqamli davrda huquq subyektiligi masalalari
- 47 **KAN YEKATERINA EDUARDOVNA**
Sog'liqni saqlash sohasida sun'iy intellektni joriy etishdagi normativ to'siqlar
- 55 **SAIDOV BOBUR BAXROMJONOVICH**
Metaolamlarni huquqiy tartibga solish: virtual dunyoda yurisdiksiya va intellektual mulkni himoya qilish masalalari
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
AQShda robot-maslahatchilar faoliyatini tartibga solish xususiyatlari
- 91 **NURULLAYEV UMIDBEK XUDAYBERDIYEVICH**
O'zbekiston va xorijiy davlatlar qonunchiligida axborot vositachisining huquqiy maqomi masalalari

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 101 **ABDULLAYEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Chet el fuqarolari bilan nikohni qayd etish masalalari va bu boradagi xalqaro qonunchilik asoslari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 111 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDIN QIZI**
Xorijiy mamlakatlarda yer servitutining turlari va ularning huquqiy tabiati
- 125 **TURDIYEV BOBIR SOBIROVICH**
Atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki: xalqaro standartlar va xorij tajribasi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 141 **RAXMANOV SHUXRAT NAIMOVICH**
Xalqaro tashkilotlarning diplomatik huquqining umumiy xalqaro huquq tizimidagi o'ri: nazariy-metodologik yondashuvlar

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI**
Inson huquqlarini himoya qilishda nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki tushunchasi va tavsifi

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

- 161 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**
Jamoat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish: Turkiya tajribasi va O'zbekiston uchun istiqbollar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 АЛИЕВ ИЛХОМЖОН МУРОД УГЛИ

Внедрение технологий искусственного интеллекта в деятельность органов юстиции
Республики Узбекистан

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО.
МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

17 РУСТАМБЕКОВ ИСЛАМБЕК РУСТАМБЕКОВИЧ, ГУЛЯМОВ САИД САИДАХРАРОВИЧ

Современная киберкоррупция: понятие, проблемы и пути противодействия
в Центральноазиатском регионе

30 ЖУМАГУЛОВ АЛИШЕР ЭРНАПАСОВИЧ

Сукук: исторический взгляд на новый правовой институт

38 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ

Искусственный интеллект и автономные транспортные средства: вопросы правовой
субъектности в цифровую эпоху

47 КАН ЕКАТЕРИНА ЭДУАРДОВНА

Нормативные барьеры внедрения искусственного интеллекта в здравоохранении

55 САИДОВ БОБУР БАХРОМЖОНОВИЧ

Правовое регулирование метавселенных: вопросы юрисдикции и защиты интеллектуальной
собственности в виртуальных мирах

81 НАБИРАЕВА ЗАРНИГОР АКМАЛОВНА

Особенности регулирования деятельности роботов-консультантов в США

91 НУРУЛЛАЕВ УМИДБЕК ХУДАЙБЕРДИЕВИЧ

Правовой статус информационного посредника в законодательстве Узбекистана и зарубежных стран

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ
ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. АРБИТРАЖ И МЕДИАЦИЯ

101 АБДУЛЛАЕВА РИСОЛАТ СУННАТОВНА

Вопросы регистрации браков с иностранными гражданами и международно-правовые основы
в этой сфере

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

111 АБДУСАМАДОВА ЗАРИНА ШОБИДДИН КИЗИ

Типы сервитутов в зарубежных странах и их правовая природа

125 ТУРДИЕВ БОБИР СОБИРОВИЧ

Участие общественности в принятии решений, касающихся окружающей среды:
международные стандарты и зарубежный опыт

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

141 РАХМАНОВ ШУХРАТ НАИМОВИЧ

Место дипломатического права международных организаций в системе международного права:
теоретико-методологические подходы

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

150 НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ

Понятие и характеристика участия некоммерческих негосударственных организаций
в защите прав человека

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

161 ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ

Совершенствование обеспечения общественной безопасности: опыт Турции и перспективы для
Узбекистана

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCIAL AND CUSTOMS LAW

- 8 **ALIEV ILKHOMJON MUROD UGLI**
Implementation of artificial intelligence technologies in the activities of the justice authorities of the Republic of Uzbekistan

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 17 **RUSTAMBEKOV ISLAMBEK RUSTAMBEKOVICH, GULYAMOV SAID SAIDAKHRAROVICH**
Modern cybercorruption: concept, challenges, and countermeasures in the Central Asian region
- 30 **JUMAGULOV ALISHER ERNAPASOVICH**
Sukuk: a historical view of the new legal institution
- 38 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**
Artificial intelligence and autonomous vehicles: issues of legal subjectivity in the digital era
- 47 **KAN EKATERINA EDUARDOVNA**
Regulatory barriers to the implementation of artificial intelligence in healthcare
- 55 **SAIDOV BOBUR BAKHROMJONOVICH**
Legal regulation of metaverses: issues of jurisdiction and intellectual property protection in virtual worlds
- 81 **NABIRAYEVA ZARNIGOR AKMALOVNA**
Features of regulating robo-advisors in the USA
- 91 **NURULLAEV UMIDBEK KHUDAYBERDIYEVICH**
Issues of the legal status of an information intermediary in the legislation of Uzbekistan and foreign countries

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

- 101 **ABDULLAEVA RISOLAT SUNNATOVNA**
Issues of marriage registration with foreign citizens and the foundations of international legislation in this regard

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 113 **ABDUSAMADOVA ZARINA SHOBIDDINOVNA**
Types of servitudes in foreign countries and their legal nature
- 125 **TURDIEV BOBIR SOBIROVICH**
Public participation in environmental decision-making: international standards and foreign experience

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

- 141 **RAKHMANOV SHUKHRAT NAIMOVICH**
The role of the diplomatic law of international organizations in the general system of international law: theoretical and methodological approaches

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

- 150 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**
The concept and descriptions of the participation of non-governmental non-profit organizations in the protection of human rights

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

- 161 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**
Improving public safety ensuring: the experience of turkey and prospects for Uzbekistan

Kelib tushgan / Получено / Received: 07.04.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 19.04.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 28.04.2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2./AAIX9866

UDC: 347(045)(575.1)

O'ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA AXBOROT VOSITACHISINING HUQUQIY MAQOMI MASALALARI

Nurullayev Umidbek Xudayberdiyevich,

O'zbekiston Respublikasi

Jamoat xavfsizligi universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-7960-9807

e-mail: nurumidbek@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola "axborot vositachisi" tushunchasining huquqiy maqomi va uni tartibga solish mexanizmlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Axborot vositachilarining huquqiy maqomini chuqur o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy qonunchilikka mos takliflar ishlab chiqish zamonaviy yuridik ilm-fan oldidagi dolzarb vazifa bo'lib bormoqda. Shundan kelib chiqib, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar qonunchiligidagi amaliy tajriba, normativ hujjatlar o'rganildi, axborot vositachilariga nisbatan qo'llanadigan turli tushunchalar – servis-provayder, axborot jamiyati xizmati provayderi, interaktiv kompyuter xizmati provayderi, onlayn-platforma, blogger, influenser kabi atamalar, ularning mazmun-mohiyati ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari axborot vositachilarining huquqiy maqomiga yagona, xalqaro darajada tan olingan yondashuv mavjud emasligini ko'rsatdi. Maqolada aynan shu yo'nalishdagi masalalar, xususan, AQSH va Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi axborot vositachilari uchun ishlab chiqilgan normativ yondashuvlar, ularning O'zbekiston uchun ahamiyati hamda mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish zarurati qiyosiy-huquqiy, tarixiy, analitik, kasusli va konseptual tahlil metodlari asosida tadqiq qilingan. Maqola yakunida muallif O'zbekiston qonunchiligidagi axborot vositachilari tushunchasi va ularning maqomi bo'yicha aniq va tizimli ta'riflar mavjud emasligiga e'tibor qaratib, bu maqomni belgilashga doir o'z takliflarini ilgari surgan.

Kalit so'zlar: axborot vositachisi, servis-provayder, onlayn-platforma, blogger, influenser, DMCA, CDA, kontent tarqatish, domen nomi egasi, xosting provayder

ПРАВОВОЙ СТАТУС ИНФОРМАЦИОННОГО ПОСРЕДНИКА В ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА И ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Нуруллаев Умидбек Худайбердиевич,

самостоятельный соискатель

Университета общественной безопасности

Республики Узбекистан

Аннотация. Настоящая статья посвящена рассмотрению правового статуса понятия «информационный посредник» и механизмов его регулирования. Глубокое исследование

правового положения информационных посредников, анализ международного опыта и выработка предложений, адаптированных к национальному законодательству, становятся актуальной задачей современной юридической науки. В этой связи изучены практика и нормативные документы законодательства Узбекистана и других стран, а также термины, применяемые в отношении информационных посредников, такие как сервис-провайдер, провайдер услуг информационного общества, провайдер интерактивных компьютерных услуг, онлайн-платформа, блогер, инфлюенсер и другие, и раскрыта их сущностная характеристика. Результаты исследования показали, что в отношении правового статуса информационных посредников не существует единого, международно признанного подхода. В статье рассматриваются нормативные подходы, разработанные для информационных посредников в законодательстве США и Европейского союза, их значимость для Узбекистана, а также необходимость устранения существующих правовых пробелов. Анализ проведён с использованием сравнительно-правового, исторического, аналитического, казуального и концептуального методов. В заключительной части автор обращает внимание на отсутствие чётких и системных определений понятий «информационный посредник» и их правового статуса в законодательстве Узбекистана, а также выдвигает собственные предложения по его нормативному закреплению.

Ключевые слова: информационный посредник, сервис-провайдер, онлайн-платформа, блогер, инфлюенсер, DMCA, CDA, распространение контента, владелец доменного имени, хостинг-провайдер

ISSUES OF THE LEGAL STATUS OF AN INFORMATION INTERMEDIARY IN THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES

Nurullaev Umidbek Khudayberdiyevich,

Independent researcher at the University of Public Safety
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article is devoted to the consideration of the legal status of the concept of “information intermediary” and the mechanisms for its regulation. In-depth study of the legal status of information intermediaries, analysis of international experience, and development of proposals in accordance with national legislation are becoming urgent tasks for modern legal science. Based on this, practical experience and regulatory documents in the legislation of Uzbekistan and other countries were studied, and various concepts used in relation to information intermediaries—such terms as service provider, information society service provider, interactive computer service provider, online platform, blogger, and influencer—their content and essence were considered. The results of the study showed the absence of a unified, internationally recognized approach to the legal status of information intermediaries. The article examines issues in this direction, in particular, the normative approaches developed for media intermediaries in the legislation of the USA and the European Union, their significance for Uzbekistan, and the need to fill existing legal gaps based on comparative-legal, historical, analytical, case study, and conceptual analysis methods. At the end of the article, the author draws attention to the fact that there are no clear and systematic definitions of the concept of information intermediaries and their status in the legislation of Uzbekistan and puts forward his proposals for defining this status.

Keywords: information intermediary, service provider, online platform, blogger, influencer, DMCA, CDA, content distribution, domain name owner, hosting provider

Kirish

So'nggi o'n yilliklar davomida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida jamiyatda yangi turdagi subyektlar – axborot vositachilari (*information intermediaries*) paydo bo'ldi. Bu subyektlar internet orqali axborotni uzatish, saqlash va ularga kirish imkonini beruvchi texnik yoki platformaviy xizmatlarni ko'rsatib, axborot almashinuvi jarayonida vositachi rolini bajaradi.

Axborot vositachilarining soni, funksiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri ortib borar ekan, ularning huquqiy maqomini aniq belgilash zaruriyati ham kundan kunga kuchaymoqda. Ammo ayni paytda zamonaviy huquqda "axborot vositachisi" tushunchasiga nisbatan umumiy qabul qilingan yagona yondashuv mavjud emas. Har bir davlat ushbu tushunchaga o'zining huquqiy tizimi, ijtimoiy-siyosiy konteksti va texnologik rivojlanish darajasiga muvofiq yondashadi.

Masalan, AQSH qonunchiligida axborot vositachilari huquqiy jihatdan ancha keng va moslashuvchan tarzda belgilangan. Xususan, 1998-yil 28-oktabrda qabul qilingan "Raqamli davrda mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun" (*Digital Millennium Copyright Act, DMCA*)da "axborot vositachisi" atamasi o'rniga "xizmat ko'rsatuvchi provayder" (*service provider*) tushunchasi qo'llanadi. Mazkur qonun axborotni uzatish, saqlash va unga kirish bilan bog'liq texnik vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni ushbu kategoriya doirasida ko'rib chiqadi. DMCA nafaqat bu provayderlarning faoliyat doirasini belgilaydi, balki qonunbuzarlik holatlarida ularning javobgarlikdan ozod bo'lishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ham ko'rsatadi. Qonunda xizmat ko'rsatuvchi provayderlar turlari alohida sanab o'tilgan bo'lsa-da, ular uchun umumiy ta'rif ham berilgan bo'lib, bu normativ aniqlik va huquqiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

DMCaga ko'ra, xizmat ko'rsatuvchi provayder foydalanuvchi tomonidan tan-

langan axborot kontentining mazmunini o'zgartirmasdan uni raqamli muhitda uzatuvchi, saqlovchi yoki unga kirish imkonini beruvchi shaxs yoki tashkilotdir. Qonun ijrosini ta'minlovchi sud amaliyoti bu tushunchani yanada keng talqin qilib, internetga kirish xizmatlaridan tortib elektron pochta, chat, xosting xizmatlari, onlayn savdo maydonchalari va hatto torrent saytlariga qadar bo'lgan keng doiradagi vositachilik faoliyatini qamrab oladi. Bu esa AQSH qonunchiligida "xavfsiz orol" (*safe harbor*) prinsipi asosida axborot vositachilarini uchinchi shaxslarning noqonuniy faoliyati uchun javobgarlikdan muayyan shartlar asosida ozod etish imkoniyatini yaratadi.

Boshqa tomondan, O'zbekiston qonunchiligida bu soha hali to'liq tartibga solinmagan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda "axborot vositachisi" tushunchasi mavjud emas yoki juda umumiy holatda tilga olinadi. Shu sababli, axborot vositachilarining huquqiy maqomi, ularning huquq va majburiyatlari, javobgarlik chegaralari, shuningdek, axloqiy mas'uliyat masalalari noaniq qolmoqda. Bu esa, bir tomondan, mazkur subyektlarning huquqiy himoyasini zaiflashtirsa, boshqa tomondan, internetda noqonuniy axborot tarqatilishining oldini olishni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi holatlarning barchasi axborot vositachilarining huquqiy maqomini chuqur o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va milliy qonunchilikka mos takliflar ishlab chiqishni zamonaviy yuridik ilm-fan oldiga dolzarb vazifa sifatida qo'yimoqda. Ushbu maqolada aynan shu yo'nalishdagi masalalar, xususan, AQSH va Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot vositachilari uchun ishlab chiqilgan normativ yondashuvlar, ularning O'zbekiston uchun ahamiyati hamda mavjud huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish zarurati tahlil etiladi.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotning ilmiy asoslari sifatida "axborot vositachisi" tushunchasining huquqiy maqomini yorituvchi xalqaro va milliy manbalar tizimli ravishda o'rganildi. Asosiy

materiallar qatoriga turli mamlakatlarning normativ-huquqiy hujjatlari, mazkur hujjatlarning amaliy talqini bo'yicha sud qarorlari, shuningdek ilmiy-do'stona (doktrinal) adabiyotlar kiritildi.

Tadqiqotda quyidagi normativ manbalar muhim asos bo'ldi:

AQSH qonunchiligi: xususan, *Digital Millennium Copyright Act* (DMCA, 17 U.S.C. §512) va *Communications Decency Act* (CDA, 47 U.S.C. §230) kabi qonunlar, shuningdek, ularning sud amaliyotidagi talqini (masalan, *Robert Hendrickson v. eBay Inc.*, *Columbia Pictures v. Gary Fung* kabi ishlar);

Yevropa Ittifoqi qonunchiligi: *E-Commerce Directive* 2000/31/EC, *Directive* 98/34/EC hamda YI sudining amaliy qarorlari (masalan, *McFadden v. Sony Music*, *UPC Telekabel Wien* va boshqalar);

Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va boshqa davlatlarning internet huquqi va axborot texnologiyalari bilan bog'liq qonunlari;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi: axborot xavfsizligi, internet faoliyati, ommaviy axborot vositalari, elektron tijorat va axborot texnologiyalariga oid mavjud qonunlar va normativ hujjatlar (masalan, "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonun, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun va boshqalar).

Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy maqolalari, xalqaro tashkilotlar (*WIPO*, *EU Commission*) hisobotlari, doktrinal fikrlar ham ushbu tadqiqotda tahlil qilingan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlar kompleks tarzda qo'llandi:

– qiyosiy-huquqiy metod yordamida turli mamlakatlar (AQSH, YI, Rossiya, O'zbekiston va boshqalar) qonunchiligi o'rtasida "axborot vositachisi" tushunchasi va unga nisbatan yondashuvlar solishtirildi. Har bir tizimdagi o'xshashliklar, farqlar va amaliy oqibatlar aniqlanib, umumiy va milliy xususiyatlar ajratib ko'rsatildi;

– tahliliy metod asosida qonun hujjatlari va sud qarorlari tahlil qilinib, ularning naza-

riy hamda amaliy mazmuni ochib berildi. Masalan, AQSHda xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning javobgarlikdan ozod etilishi shartlari yoki YI'da axborot jamiyati xizmatlarining mezonlari tahlil qilindi;

– normativ tahlil metodi bilan har bir normativ-huquqiy hujjatning matni texnik jihatdan o'rganildi, tushunchalar izohlandi, ularning muayyan huquqiy oqibatlarga olib keluvchi jihatlari aniqlab chiqildi. Bu yondashuv orqali normativ tafovutlarning huquqiy asoslari yoritildi;

– kazusli metod (misollar asosida o'rganish) orqali sud amaliyotidagi real ishlar tahlil qilinib, ularning vositachilar uchun qanday yuridik standartlar yaratgani ko'rsatib berildi. Bu metod AQSH va YI sud ishlaridagi talqinlarni aniq huquqiy holatlar orqali yoritishga xizmat qildi;

– tarixiy metod yordamida axborot vositachiligi tushunchasining evolyutsiyasi, ya'ni bu tushunchaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va hozirgi holatgacha bo'lgan bosqichlari, masalan, provayderlar faoliyatini tartibga solishning dastlabki shakllari, ularning bugungi holat bilan solishtirilgan shakli o'rganildi;

– konseptual tahlil metodi yordamida axborot vositachilarining nazariy asoslari, ularning huquqiy maqomini shakllantiruvchi omillar, ularning axloqiy va huquqiy mas'uliyat doirasi kabi tushunchalar chuqur konseptual darajada tahlil qilindi.

Ushbu metodlarni uyg'unlikda qo'llash orqali maqolada "axborot vositachisi" atamasining zamonaviy huquqiy tushunchasiga aniqlik kiritildi, turli yondashuvlar va milliy tajribalar asosida mustahkam nazariy hamda amaliy xulosa chiqarish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalari

Zamonaviy huquqda "axborot vositachisi" tushunchasiga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas. Bugungi kunda axborotni uzatish, saqlash yoki ularga kirish huquqini berish bilan bog'liq vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni aniqlash uchun turli atamalar qo'llanadi. Masalan, AQSH-

ning 1998-yil 28-oktabrdagi “Raqamli davrda mualliflik huquqi to’g’risida”gi qonunida (*Digital Millennium Copyright Act. DMCA*, 17 U.S.C. 1201) “axborot vositachisi” tushunchasi o’rniga ya’ni axborotni uzatish, saqlash va unga kirish bilan bog’liq vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarni anglatuvchi “servis-provayder” (*service provider*) tushunchasi ishlatiladi. Bundan tashqari, O’zbekiston qonunchiligidan farqli o’laroq, DMCA xizmat ko’rsatuvchi provayderlar tur-larini sanab o’tishdan tashqari, ular uchun umumiy ta’rifni ham taklif etadi.

Xizmat ko’rsatuvchi provayder deganda foydalanuvchi tomonidan tanlangan kontentning mazmunini o’zgartirmay, belgilangan nuqtalar o’rtasida raqamli onlayn-ma’lumotni uzatish, yo’naltirish yoki aloqa uzatishni amalga oshiradigan shaxs, shuningdek, onlayn xizmatlar ko’rsatuvchi, tarmoqqa kirish imkonini ta’minlovchi yoki ushbu maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin bo’lgan jihozlar operatori tushuniladi [1].

“Xizmat ko’rsatuvchi provayder” tushunchasi sudlar tomonidan keng talqin qilinadi va unga internetga kirish, elektron pochta, chat va veb-sahifalar xostingi xizmatlarini ko’rsatuvchi provayderlar ham kiritiladi [2]. Shuningdek, xizmat ko’rsatuvchi provayderlar qatoriga tovarlar savdosi bo’yicha takliflarni joylashtiruvchi saytlar [3] va foydalanuvchilarning torrent-fayllarni (fayllarni kichik qismlarga bo’lib, ularni o’zaro almashish) joylashtiruvchi saytlar [4] ham kirishi mumkin.

AQSHning 1996-yildagi “Aloqa sohasida muloqot odobi to’g’risida”gi qonunida (CDA. 47 U.S.C. §230) [5], servis-provayder tushunchasi boshqa bir tushuncha, ya’ni “interaktiv kompyuter xizmati provayderi” (*provider of interactive computer service*) shaklida qo’llanadi. Bu yerda interaktiv kompyuter xizmati provayderi deganda ko’plab foydalanuvchilarga kompyuter serveriga kirish imkonini taqdim etuvchi yoki ruxsat beruvchi axborot xizmati, tizimi yoki dasturiy ta’minot

provayderi tushuniladi. Bu xizmatlar orasida, ayniqsa, internetga kirishni ta’minlovchi tizimlar yoki kutubxonalar yoxud ta’lim muassasalari tomonidan boshqariladigan tizimlar va xizmatlar ham bor [6].

“Interaktiv kompyuter xizmati” tushunchasi keng talqin qilinadi va unga avvalo foydalanuvchilarga xabarlar joylashtirish imkonini beruvchi saytlar kiritiladi [7]. Bu yerda “interaktiv kompyuter xizmati provayderi” tushunchasi “axborot kontenti provayderi” (*information content provider*) tushunchasiga qarshi qo’yiladi. Agar interaktiv kompyuter xizmati provayderi kompyuter tizimlari orqali axborotga kirish imkonini taqdim etsa va odatda uzatilgan axborotning mazmuni uchun javobgar bo’lmasa, axborot kontenti provayderi internet yoki har qanday boshqa interaktiv kompyuter xizmati orqali taqdim etiladigan axborotning yaratilishi yoki rivojlanishi uchun javobgar hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot vositachisi “axborot jamiyati xizmatlari provayderi” (*information society service provider*) tushunchasi orqali ta’riflanadi [8]. Bu yerda axborot jamiyati xizmati deganda “odatda haq evaziga, masofadan turib, elektron vositalar orqali va foydalanuvchining individual talabiga binoan taklif qilingan har qanday xizmat” tushuniladi [9]. Shu tariqa ushbu xizmat axborot jamiyati xizmati sifatida qabul qilinishi uchun to’rtta belgilangan xususiyatga javob berishi kerak bo’lardi, bularga:

- haq evaziga xizmat ko’rsatish;
- xizmat masofadan turib taqdim etilishi (provayder va foydalanuvchi bir vaqtda mavjud bo’lmagan holda);
- xizmat to’liq elektron vositalar orqali ma’lumotlarni ishlash va saqlash, shuningdek, simli, radioto’lqinlar yoki boshqa elektromagnit vositalari orqali yetkazish imkoniyatiga asoslangan bo’lishi;
- xizmat foydalanuvchining individual talabiga binoan taqdim etilishi kerak (ya’ni ma’lumotlar foydalanuvchining talabiga asosan uzatiladi).

Yevropa Ittifoqida axborot jamiyati xizmatlariga keng ko'lamdagi internet-xizmatlar kiradi. "Kontekst reklama xizmatlari" [10], "tovarlar savdosi bo'yicha takliflar joylashtirish xizmatlari" [11], "rasmlar va video izlash xizmati" [12] va "umumiy izlash" xizmatlari shular jumlasidan. Bu xizmatlar axborot jamiyati xizmati sifatida tan olinadi, chunki ular odatda elektron vositalar orqali, foydalanuvchining talabiga binoan, masofadan turib va haq evaziga taqdim etiladi. Biroq ba'zi xizmatlar axborot jamiyati xizmatlari sifatida tan olinmaydi, masalan:

- tibbiyot tekshiruvlari elektron jihozlardan foydalanish orqali bemorning hozirligida olib borilsa yoki do'konda elektron katalog taqdim etilsa, bunday xizmatlar masofadan turib ko'rsatilayotgani uchun axborot jamiyati xizmatiga kirmaydi (chunki ular foydalanuvchining jismonan hozir bo'lishini talab qiladi) [13];

- ma'lumotlar optik disklarda yoki boshqa olib yurish vositalarida taqdim etilsa (bunday xizmatlar elektron vositalar orqali amalga oshirilmaydi, chunki ular ma'lumotlarni fizik vositalarda uzatishni o'z ichiga oladi) [14];

- radio va televizion xizmatlar ham axborot jamiyati xizmatlari sifatida tan olinmaydi, chunki ular foydalanuvchining individual talabiga asosan uzatilmaydi. Ular ommaviy tarzda translyatsiya qilinadi va foydalanuvchining maxsus talabini talab etmaydi [15].

To'g'ri, Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot xizmati ko'rsatuvchilari qayd etilishi uchun bir nechta qo'shimcha talablar mavjud, bu ularning tan olinishini AQSH qonunchiligiga nisbatan murakkablashtiradi. Yevropa qonunchiligidagi ushbu qo'shimcha talablar, masalan, xizmatning masofadan turib, elektron vositalar orqali taqdim etilishi va foydalanuvchining individual talabiga javob berish kabi axborot jamiyati xizmatlarini tan olish ayrim tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi ushbu qo'shimcha talablar sudlar to-

monidan cheklangan va aniq tushuniladigan tarzda talqin qilingan, bu esa amaliy jihatdan ushbu qonunning qo'llanishidagi har qanday muammoni kamaytiradi.

Yevropa sudi *McFadden v. Sony Music* [16] ishida shunday qaror qabul qilgan. Unda YI sud internetga WiFi orqali kirishni taqdim etuvchi do'kon egasini axborot jamiyati xizmati provayderi deb tan oladi. Bu qarorga qaramay, provayder va foydalanuvchilar bir joyda bo'lgan, ya'ni xizmatning masofadan turib taqdim etilgani aniq emas, ammo sud qarori asosida bunday xizmatlar internet orqali kirishni ta'minlaydi va foydalanuvchi talabiga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar qatoriga kiradi. Bu misol YI qonunchiligidagi ushbu qo'shimcha talablarning keng va aniq talqinini ko'rsatadi, chunki sud ushbu holatda provayderning masofadan turib xizmat ko'rsatishi shart emasligini, balki uning internetga kirish imkonini ta'minlayotganini asosiy omil sifatida baholagan. Demak, bunday holatda qonun talqini juda keng va harakatchan bo'lishi mumkin, bu amaliy jihatdan ushbu xizmatlarga nisbatan katta erkinlikni taqdim etadi.

Boshqa bir qiziqarli misol: Yevropa sudi qarorlaridan biriga ko'ra, axborot jamiyati xizmati bo'lish uchun xizmat foydalanuvchiga bepul bo'lishi ham mumkin. Eng muhimi, xizmat foydalanuvchiga bepul taqdim etilgan bo'lsa-da, uning taqdim etilishi iqtisodiy faoliyat hisoblanishi kerak [17]. Misol uchun, agar bepul xizmat reklama orqali daromad olish maqsadida taqdim etilsa (masalan, veb-saytda reklama joylashtirish orqali), bunday xizmat ham axborot jamiyati xizmati sifatida tan olinadi. Bu yerda xizmatning bepul bo'lishi muhim yagona omil emas, balki reklama yoki boshqa iqtisodiy manfaatlar orqali bu xizmatning iqtisodiy faoliyat hisoblanishi ahamiyatlidir. Shu tariqa, YI qonunchiligida axborot jamiyati xizmatiga oid tushuncha keng tarzda talqin qilinadi. Agar ushbu xizmat iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga olib, foydalanuvchi uchun bepul bo'lsa ham,

u axborot jamiyati xizmati sifatida tan olinishi mumkin [17].

UPC Telekabel Wien [18] nizoli ishida Yevropa sudining qaroridan kelib chiqib, axborot jamiyati xizmati provayderi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar foydalanuvchining individual talabiga asosan taqdim etilishi kerakligi bo'yicha talab chegaralangan tarzda talqin qilingan. Sud shuni aniqladiki, xizmatlarni taqdim etish provayder va foydalanuvchi o'rtasida "maxsus munosabatlar" yoki xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma mavjud bo'lishi kerakligini anglatmaydi. Bu holatda sud internetga kirish xizmatlarini taqdim etuvchi provayderlar, agar foydalanuvchilar ularning xizmatlari orqali veb-saytlarga kirish imkoniga ega bo'lsa, xizmat ko'rsatilgan deb hisoblanishini ma'lum qilgan. Bu holda veb-sayt egalari bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha hech qanday shartnoma mavjud bo'lmasligiga qaramay, provayder axborot jamiyati xizmati ko'rsatuvchisi hisoblanadi. Bu qarordan ko'rinib turibdiki, axborot jamiyati xizmati bo'lish uchun provayder va foydalanuvchi orasida maxsus shartnoma imzolanishi shart emas. Shunga qaramay, xizmat elektron vositalar orqali ko'rsatilayotgani va keng auditoriyaga taqdim etilayotgani muhimdir [19].

Shuni ta'kidlash kerakki, AQSH qonunchiligidagi "servis-provayder" va Yevropa qonunchiligidagi "axborot jamiyati xizmati provayderi" tushunchalarini keng talqin qilish axborot vositachilari uchun foydali, chunki bu ularga o'z xizmatlarini uchinchi shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish uchun foydalanishida javobgarlikdan ozod bo'lish imkonini beradi.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot vositachilarining huquqiy maqomini tartibga solishga doir yana bir "vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder" tushunchasi mavjud (*intermediary service provider*) [17]. Mazkur tushunchaning mazmunini YI sudi qarorlarida ko'rish mumkin. Unga ko'ra, "vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder internet

platforma yoki xizmat ko'rsatuvchi, foydalanuvchilarga ma'lumotni tarqatish yoki o'zaro aloqa o'rnatish imkoniyatini beradigan shaxs"dir. Uning faoliyati odatda kontentni to'g'ridan to'g'ri yaratmasdan, balki foydalanuvchilarga yoki uchinchi shaxslarga ma'lumotlarni almashish va internet orqali mavjudlikni ta'minlashga yordam berishdan iborat. Sud amaliyotidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu tushuncha asosan internet-platformalar, xosting xizmatlari, elektron tijorat va reklama xizmatlarida, masalan, internet-torrentlar, onlayn-marketpleyslar yoki chat-platformalarda qo'llanadi. Agar ular kontentni mustaqil ravishda yaratmay, balki uni foydalanuvchilarga tarqatishga yoki ma'lumot almashishga yordam bersa, ular vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayderlar hisoblanishi mumkin.

Vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder agar uning faoliyati faqat texnik, avtomatik va nafaol xususiyatga ega bo'lsagina, axborot jamiyati xizmati provayderi hisoblanadi. Bu esa shuni anglatadiki, vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder axborotni uzatish yoki saqlash bilan bog'liq jarayonda na bilimga va na nazoratga ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, axborot jamiyati xizmati provayderi axborotni uzatish yoki saqlash jarayoniga aralashmasa, vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder deb tan olinishi mumkin.

So'nggi yillarda Yevropada internetda axborotni uzatish, saqlash yoki unga kirish imkonini berish bilan bog'liq vositachilik faoliyatini amalga oshiradigan shaxslarni aniqlash uchun yangi tushuncha kiritish haqida muhokamalar olib borilmoqda. Masalan, 2016-yilda Yevropa komissiyasi onlayn-platformalar (*online platforms*) [20] faoliyatini tartibga solishga bag'ishlangan bayonotini e'lon qildi. Unda Yevropa komissiyasi onlayn-platformalarning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'sib borayotgan roliga to'xtalib, yangi innovatsion onlayn-platformalarni jalb qilish, saqlash va rivojlantirish uchun sharoit yara-

tish zarurati haqida eslatdi. Shu bilan birga, unda onlayn-platforma operatorlari o'z faoliyatlarini mas'uliyat bilan olib borishiga qaratilgan huquqiy tartibni yaratish zarurligi alohida ta'kidlandi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Zamonaviy huquqda "axborot vositachisi" atamasiga umumiy qabul qilingan yagona ta'rif mavjud emasligi AQSH va Yevropa Ittifoqi qonunchiliklarini o'rganishdan kelib chiqadigan asosiy xulosa hisoblanadi. Bu atama turli mamlakatlar qonunchiligida turlicha nomlar bilan (AQSHda "xizmat ko'rsatuvchi provayder" va "interaktiv kompyuter xizmati provayderi", YIida "axborot jamiyati xizmatlari provayderi", "vositachi xizmat provayderi") sifatida hamda turlicha huquqiy ma'nolarda ishlatiladi. Bu esa internetning global xususiyati va milliy huquqiy tizimlarning o'ziga xosligidan kelib chiqadi.

AQSHning DMCA (17 U.S.C. §512) va CDA (47 U.S.C. §230) qonunlari "xizmat ko'rsatuvchi provayder"ni internetga ulanish xizmatlaridan tortib, torrent-saytlari va onlayn savdo maydonchalarigacha bo'lgan keng doirani qamraydigan tarzda belgilaydi. Masalan, *Robert Hendrickson v. eBay Inc.* (2001) va *Columbia Pictures v. Gary Fung* (2013) sud ishlari vositachilarning faqat texnik yordam berish bilan chegaralanganini isbotlab, ularni kontent uchun javobgarlikdan ozod qiladi. YIning *E-Commerce Directive* (2000/31/EC) qonuni esa qat'iyroq shartlar (haq evaziga, masofadan, elektron vositalar orqali, foydalanuvchi talabiga ko'ra) qo'yadi, ammo *McFadden v. Sony Music* (2016) ishida WiFi orqali internet taqdim etuvchi shaxsni ham provayder sifatida e'tirof etib, moslashuvchan yondashuvni ko'rsatadi.

AQSHdagi "xavfsiz liman" qoidalari va YIdagi "vositachi xizmat provayderi" tushunchasi agar ular kontentni o'zgartirmasa yoki nazorat qilmasa, vositachilarni uchinchi shaxslarning qonunbuzarliklari uchun javobgarlikdan himoya qiladi; bu holat *Sotiris Papasavvas v. O Fileleftheros* (2014) ishida tex-

nik va avtomatlashtirilgan xususiyatlar bilan cheklangan.

YI qonunchiligida xizmatning pulli bo'lishi shart emasligi ta'kidlanadi, lekin iqtisodiy foyda (masalan, reklama daromadlari) mavjudligi muhimdir. AQSHda esa bu masalaga unchalik ahamiyat berilmaydi. *UPC Telekabel Wien* (2012) ishida provayder va foydalanuvchi o'rtasida shartnoma talab qilinmasligi aniqlanib, xizmatning foydalanuvchi so'roviga asoslanishi chegarali talqin qilindi, AQSHda esa bunday shart umuman qo'llanmaydi. YI komissiyasining 2016-yilgi bayonoti onlayn platformalar (ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat saytlari) uchun alohida tartib zarurligini ko'rsatadi, AQSHda esa bu platformalar "xizmat ko'rsatuvchi provayder" doirasiga kiradi.

Yagona yondashuvda "axborot vositachisi – axborotni elektron vositalar yordamida uzatuvchi, saqlovchi yoki unga kirish imkonini beruvchi shaxs yoki tashkilot bo'lib, faoliyati faqat texnik va passiv xususiyatga ega, kontent ishlab chiqarish yoki tahrirlashdan chetda qoladi" deb ta'riflanishi mumkin. Bu ta'rif internet provayderlari, xosting xizmatlari, onlayn platformalar va boshqa raqamli xizmatlarni o'z ichiga oladi, vositachilar esa faqat vositachilik bilan chegaralansa, uchinchi shaxslarning qonunbuzarliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadi. Ushbu yondashuv AQSHning keng qamrovli va moslashuvchan yondashuvini YI qat'iy mezonlari bilan uyg'unlashtirib, zamonaviy internet xizmatlari va onlayn platformalarni qamrab oladi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu tajribani xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik yaratishda qo'llash mumkin. Kelajakda raqamli iqtisodiyot o'sishi bilan ushbu ta'rifni yanada rivojlantirish zarur bo'ladi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda axborot vositachilarining huquqiy maqomini belgilashda quyidagilarga e'tibor qaratish taklif qilinadi:

– birinchidan, axborot vositachisini aniqlash. Chunki uning huquqiy maqomini belgilash uchun kim va qanday faoliyat bilan shug'ullanayotgani ma'lum bo'lishi kerak. Axborot vositachisi – `axborotni ommaga yetkazish va tarqatishga mas'ul bo'lgan shaxs yoki tashkilotdir. Internetda kontent yaratish va tarqatish faoliyatini olib borayotgan shaxslar (bloggerlar, influyenserlar, onlayn platformalar egalari va hokazo) axborot vositachisi hisoblanishi mumkin;

– ikkinchidan, axborot vositachisi mustaqil bo'lishi lozim. Bu erkin axborot almashtirish va axborot vositachisiga o'z ishi bilan bog'liq qarorlarni mustaqil qabul qilish imkonini beradi. Axborot vositachisi tashqi ta'sirlardan (hukumat, moliyaviy manfaatlar, siyosiy g'oyalar va hokazo) xoli bo'lishi kerak. Shuningdek, axborot vositachisi faoliyatida axborot erkinligi va kontentni tarqatish borasida har qanday senzura yo'l qo'ymasligi kerak;

– uchinchidan, axborot vositachisining axloqiy mas'uliyati. Axborot vositachilari o'z faoliyatlarida axloqiy mas'uliyatga ega bo'lishi zarur. Ular tarqatgan axboroti yoki kontenti jamoatchilikka qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olishlari lozim. Axborotni to'g'ri va adolatli yetkazish, yolg'on axborot yoki manipulyatsiyalarga yo'l qo'ymaslik, xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bundan kelib chiqadigan asosiy mas'uliyatlardir;

– to'rtinchidan, axborot vositachisining shaxsiy javobgarligi. Axborot vositachisining shaxsiy javobgarligi axborot vositachisining o'z faoliyati natijasida yuzaga kelgan huquqiy, axloqiy va jamiyatga bo'lgan mas'uliyatlariga nisbatan shaxsan javobgar bo'lishidir. Axborot vositachisi (blogger, jurnalist, influyenser va boshqalar) o'z kontenti, tarqatgan axboroti yoki yaratgan materiallari bilan boshqalarning sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qilmasligi, davlat suvereniteti va xavfsizligiga ta'sir o'tkazmasligi lozim.

REFERENCES

1. Digital Millennium Copyright Act (DMCA) 17 U.S. Code § 512(k)(1)(B). Available at: <https://www.copyright.gov/legislation/dmca.pdf>
2. Digital Millenium Copyright Act of 1998. Report: 105—551. Part 2: 1998, July 22. House of Representatives, 105th Congress, 2d Session. Washington: The Library of Congress — Thomas, p. 64. Available at: <http://www.gpo.gov/fdsys/pkg/CRPT-105hrpt551/pdf/CRPT-105hrpt551-pt2.pdf>
3. Robert H., Plaintiff v. eBay Inc., Luckyboy Entertainment, Steven Reilly 165 F Supp. 2d 1082. United States District Court, C. D. California, 2001, September 4.
4. Columbia Pictures Industries, Inc. v. Gary Fung. 710 F.3d 1020; no. 10–55946: United States Court of Appeals, Ninth Circuit. Filed March 21, 2013.
5. Communications Decency Act, 47 U.S.C. §230. Available at: <https://www.columbia.edu/~mr2651/ecommerce3/2nd/statutes/CommunicationsDecencyAct.pdf>
6. Communications Decency Act (CDA)CDA. 47 U.S.C. §230. The Communications Decency Act. Available at: [extension://mjdgandcagmikhblbnlkmfnjeamfikk/https://www.mit.edu/people/rshah/21H931.major.pdf](https://www.mit.edu/people/rshah/21H931.major.pdf)
7. Sarah J. v. Dirty World. 755 F.3d 398 (6th Cir. 2014): United States Court of Appeals, Sixth Circuit. Filed 2014, June 16.
8. Directive 2000/31/EC of the European Parliament and of the Council of 8 June 2000 on certain legal aspects of information society services, in particular electronic commerce, in the Internal Market. *Official Journal of the European Communities*, 2000, L 178/1, Art. 12–14. Available at: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/HTML/?uri=CELEX:32000L0031&from=EN>

9. Directive 98/34/EC of the European Parliament and of the Council of 22 June 1998 laying down a procedure for the provision of information in the field of technical standards and regulations (as amended by Directive 98/48/EC). *Official Journal of the European Communities*, 1998, L 204, Art. 1(2). Available at: <http://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/HTML/?uri=CELEX:31998L0034&from=EN>
10. European Union. Court of Justice. Judgment of the Court (Grand Chamber), 2010, 23 March. In Joint Cases C 236/08 to C238/08, Google France SARL, Google, Inc. v Louis Vuitton Malletier SA. Court of Justice of the European Union. Available at: <http://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?text=&docid=83961&pageIndex=0&doclang=en&mode=lst&dir=&occ=first&part=1&cid=87398>
11. European Union. Court of Justice. Judgment of the Court (Grand Chamber), 2011, 12 July. In Case C-324/09: L’Oreal SA etc. v eBay etc. Court of Justice of the European Union. Available at: <http://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?text=&docid=107261&pageIndex=0&doclang=en&mode=lst&dir=&occ=first&part=1&cid=87543>
12. Garrote Fernandez-Diez I. Comparative Analysis on National Approaches to the Liability of Internet Intermediaries for Infringement of Copyright and Related Rights. WIPO: World Intellectual Property Organization. 2004, March 11. Available at: http://www.wipo.int/export/sites/www/copyright/en/doc/liability_of_internet_intermediaries_garrote.pdf
13. Directive 98/34/EC of the European Parliament and of the Council of 22 June 1998 laying down a procedure for the provision of information in the field of technical standards and regulations (as amended by Directive 98/48/EC). Annex V paragraph 1(a).
14. Annex V paragraph 2. Available at: <https://www.icqc.eu/userfiles/File/directive%2098%2034%20ec%20ru.pdf>
15. Annex V paragraph 3. Available at: <https://www.icqc.eu/userfiles/File/directive%2098%2034%20ec%20ru.pdf>
16. European Union. Court of Justice. Judgment of the Court (Third Chamber), 2016, 15 September. In Case CD484/14: Tobias Mc Fadden v Sony Music Entertainment Germany GmbH. Court of Justice of the European Union. Available at: <http://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?text=&docid=183363&pageIndex=0&doclang=EN&mode=lst&dir=&occ=first&part=1&cid=755318>
17. European Union. Court of Justice. Judgment of the Court (Seventh Chamber), 2014, 11 September. In Case C-291/13: Sotiris Papasavvas v O Fileleftheros Dimosia Etaireia Ltd. Court of Justice of the European Union. Available at: <http://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?text=&docid=157524&pageIndex=0&doclang=en&mode=lst&dir=&occ=first&part=1&cid=86449>
18. UPC Telekabel Wien GmbH v Constantin Film Verleih GmbH, Wega Filmproduktionsgesellschaft mbH Case C-314/12.
19. E-Commerce Directive, Section 4. Available at: https://www.cpubfilm.cz/txt/e-commerce_directive.pdf
20. European Union. Court of Justice. Judgment of the Court (Seventh Chamber), 11 September 2014: In Case C-291/13: Sotiris Papasavvas v O Fileleftheros Dimosia Etaireia Ltd. Court of Justice of the European Union. Available at: <http://curia.europa.eu/juris/document/document.jsf?text=&docid=157524&pageIndex=0&doclang=en&mode=lst&dir=&occ=first&part=1&cid=86449>
21. European Commission. Communication from the commission to the European Parliament, the Council, the European economic and social committee and the committee of the regions Online Platforms and the Digital Single Market Opportunities and Challenges for Europe COM/2016/0288 final. European Commission: site, 2016. Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?qid=1466514160026&uri=CELEX:52016DC0288>

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2025-YIL 2-SON

VOLUME 5 / ISSUE 2 / 2025

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.5.2.